

# **QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**Qo'qon DPI.  
ILMIY XABARLAR.  
2020- yildan nashr etiladi.  
Yilda 4 marta chiqadi.**

**2 (6)-2022  
Mart**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.  
Кокандский ГПИ**

**издаётся с 2020 года  
Выходит 4 раз в год**

**УЎК 5/9(08)**  
**КБК 72я5**  
**К 99**

MUASSIS:

**QO'QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Qo'qon DPI.  
ILMIY XABARLAR-  
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.  
Кокандский ГПИ.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020- yil 9 - iyulda 1085 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi:

2021- yil 5 -may

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

Offset bosma, Offset qog'izi.

Adadi: 100 nusxa

Buyurma № 149

Nashr uchun mas'ul:  
V.Karimova, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muqova dizayni va original maket Qo'qon DPI tahririyat - nashriyat bo'limida tayyorlangan.  
"Poliraf Super Servis"  
MCHJ bosxonasida chop etildi.

Manzil: Farg'onsha shahar, Aviasozlar ko'chasi 2-uy.

"Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021- yil 31-martdagи qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro'yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix fan tarmoqlari bo'yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.

Tahririyat manzili: 150700, Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy.

Tel.: (0373) 542-38-38.

Cайт: [www.kspi.uz](http://www.kspi.uz)  
[journal.kspi.uz](mailto:journal.kspi.uz)

ISBN: 978-9943-7182-7-2

**"CLASSIC"**  
nashriyoti 2021

**BOSH MUHARRIR:**

D. Sh. Xodjayeva- filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Mas'ul muharrir:  
N.S.Jo'rayev, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Mas'ul muharrir yordamchisi:  
O.Y.To'xtasinova, filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Tahrir kengashi:

**ANIQ VA TABIIY FANLAR:**

Sh.Farmonov O'zR FA akademigi  
Sh.Namozov O'zR FA akademigi  
S.Rashidova O'zR FA akademigi  
I.Asqarov kimyo fanlari doktori, professor  
V.Xo'jayev kimyo fanlari doktori, professor  
Sh.Abdullayev kimyo fanlari doktori, professor  
I.Abdug'ofov kimyo fanlari doktori, professor  
S.Aripova kimyo fanlari doktori, professor  
D.Altiboyeva kimyo fanlari doktori, professor (Qirgizston)  
I.Eshmetov kimyo fanlari doktori, professor  
A.Ibragimov kimyo fanlari doktori, professor  
N.Vohidova kimyo fanlari doktori (DSc)  
G'.Ochilov kimyo fanlari nomzodi, dotsent  
R.Rasulov fizika-matematika fanlari doktori, professor  
B.Samatov fizika-matematika fanlari doktori, professor  
D.Akbarov fizika-matematika fanlari doktori  
M.Rahmatullayev fizika-matematika fanlari doktori  
V.Isaqov biologiya fanlari doktori, professor  
B.Kamolov geografiya fanlari doktori, professor  
G'.Abdullayev biologiya fanlari doktori  
A.Batashov biologiya fanlari doktori  
H.Xonboboev texnika fanlari nomzodi, dosent

**IJTIMOY-GUMANITAR FANLAR:**

N.Karimov O'zR FA akademigi  
A.S.Sagdullayev O'zR FA akademigi  
O.Akimova filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
V.Borisova filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
I.Artyushkov filologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
N.Mahmudov filologiya fanlari doktori, professor  
Sh.Iskandarova filologiya fanlari doktori, professor  
A.Qosimov filologiya fanlari doktori, professor  
A.Sabirdinov filologiya fanlari doktori, professor  
D.Nabiyeva filologiya fanlari doktori, professor  
O.Bozorov filologiya fanlari doktori  
N.Uluqov filologiya fanlari doktori, professor  
H.Usmanova filologiya fanlari doktori, professor  
M.Umarxo'jayev filologiya fanlari doktori, professor  
D.Quronov filologiya fanlari doktori (DSc)  
A.Ziyayev filologiya fanlari doktori (DSc)  
D.Jamoliddinova filologiya fanlari doktori (DSc)  
Z.Qobilova filologiya fanlari doktori (DSc)  
M.Rasulova filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
S.Mo'minov filologiya fanlari nomzodi  
O.Bozorov filologiya fanlari nomzodi  
G.Kislov falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya)  
G.Abdullayev falsafa fanlari doktori, professor  
T.Fayzullayev siyosat fanlari doktori, professor  
A.Rasulov tarix fanlari doktori, professor  
R.Shamsiddonov tarix fanlari doktori, professor  
Z.Isomiddinov tarix fanlari doktori, professor  
X.Yunusova tarix fanlari doktori, professor  
O.Komilov tarix fanlari doktori, dotsent  
I.Yo'ldashev tarix fanlari nomzodi  
T.Haydarov iqtisod fanlari doktori, professor  
N.Babayeva iqtisod fanlari nomzodi, dotsent  
Y.Dorojkin pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)  
N.Erkaboyeva pedagogika fanlari doktori, dotsent  
O'.Asqarova pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Z.Asimova pedagogika fanlari doktori, dotsent  
V.Qodirov pedagogika fanlari doktori, dotsent  
S.Alimsaidova pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
A.Abdurashidov pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
A.Tolibjonov pedagogika fanlari nomzodi, dotsent  
D.O'rinboyev falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)  
J.Azamov yuridika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

## MUNDARIJA

### ANIQ VA TABIIY FANLAR

### KIMYO, BIOLOGIYA

1	<b>Yu.K.Absoatov, A.J.Xoliqov, A.M.Ochilov, I.D.Eshmetov</b> Modifikasiyalangan epoksid polimerlarning fizik-kimyoviy hususiyatlari	7
2	<b>R.A.Payg'amov, I.L.Axmadjonov, N.M.Esonqulova, M.I.Payg'amova-</b> Mahalliy xom-ashyolar asosida uglerodli adsorbentlar olish va ularning fizik-kimyoviy xossalari aniqlash	13
3	<b>I.Y.Mamatova</b> In silico Kimyoviy prognozlash usullari	17
4	<b>Z.Z.Uzakov , O.Sh.Ergashev, B.E.Begmatov</b> Sug'oriladigan o'tloqi - bo'z tuproqlarning agrokimyoviy holati (g'uzor tumani misolida)	21
5	<b>J.X.Xudoyberdiyev, A.M.Reymo, R.K.Kurbaniyazov, Sh.S.Namazov, O.A.Badalova, A.R.Seytnazarov,</b> Qoraqalpoq jelvakli fosforitlarini ikki bosqichli parchalash asosida donadorlangan oddiy superfosfat olish	26
6	<b>I.I. Mamadoliyev, N.I.Fayzullayev, J.A.Mirzakobilov</b> Mahalliy xom ashyolardan yuqori kremniyli seolit sintez qilish	33
7	<b>I.R.Asqarov, Sh.V.Abdullayev, D.R.Haydarova, M.M.Muminjonov</b> Olovli o't (phlomoides nuda) o'simligining kimyoviy tarkibi va xalq tabobatidagi o'rni	39
8	<b>K.X.Ziyadullaev, S.E.Nurmanov, D.A.Shayzakova</b> Og'ir piroliz moylarini fraksiyalarga ajratish va superplastifikator olish jarayonlarini tadqiq qilish.	43
9	<b>B.N.Xoliqulov, A.G'.Maxsumov, A.Umrzoqov, D.A.Xandamov, G'.M.Ochilov</b> Superbiostimulyator bis-4-bromofenoksikarbamat hosilalari sintezi, texnologiyasi xossalari va ularning qo'llanishi	48
10	<b>M.J.Madumarov, X.X.Abdinazarov, S.O.Madumarova</b> O'zbekiston faunasida uchrovchi cladocera turkumi ayrim turlarining tahlili	60
11	<b>H.M.Jamolova, M.M.Mo'ydinov, A.S.G'ofurov</b> Kimyo ta'limida clil metodikasi yondoshuvi asosida integrasiyani amalga oshirish	64
12	<b>H.M.Jamolova</b> Kimyo fanini o'qitishda loyihalash texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari	67

### ADABIYOTSHUNOSLIK

13	<b>Sh.Karimova, Sh.G'.Toshxo`jayeva</b> Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodida adabiy ta'sir va ijodiy mushtaraklik (Zavqiy ijodi misolida)	69
14	<b>N.S.G'ULOMOVA</b> Alisher Navoiy mualliflik korpusida g'azallar tahlili, xalq maqollari va iboralarning tadqiqi masalasi	73
15	<b>Л.В.Половина</b> Оксюмороны в поэзии О.Э. Мандельштама	77
16	<b>Q.U.Pardayev</b> Muqimiyl ijodiga yangicha munosabat	80
17	<b>F.Qurbanova</b> Mifologik tasavvurlar va zamonaviy epik talqin xususida	84

6. Шушеначева А.Б., Шергина О.С. Особенности компонентного состава эфирного масла хмеля обыкновенного и зопника клубненосного// Молодежь и наука: сборник материалов 6 Всероссийской научно-технической конференции студентов, аспирантов и молодых ученых-2011 [электронный ресурс]. -Красноярск: Сибирский федеральный ун-т.- УРЛ:[хтпп://сонф.сфу-крас.ру/ситет/мн2010/сестион16.хтнл.](http://conf.sfu-kras.ru/citec/mn2010/sestion16.htm)

## **OG'IR PIROLIZ MOYLARINI FRAKSIYALARGA AJRATISH VA SUPERPLASTIFIKATOR OLISH JARAYONLARINI TADQIQ QILISH.**

### **ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ ПОЛУЧЕНИЯ СУПЕРПЛАСТИФИКАТОРЕ И РАЗДЕЛЕНИЯ ТЯЖЕЛЫХ ПИРОЛИЗОВЫХ ФРАКЦИЙ МАСЕЛ**

### **STUDY OF THE PROCESSES OF OBTAINING SUPERPLASTICIZER AND SEPARATION OF HEAVY PYROLYSIS OIL FRACTION.**

**K.X.Ziyadullayeva  
S.E.Nurmanov  
D.A.Shayzakova**

**Annotatsiya.** Maqolada og'ir piroliz moyining kimyoviy tarkibi aniqlangan. Piroliz chiqindilari fraksiyalarga ajratilib, inden, 1-metilinden, naftalin, 1-metil naftalin, 2-metil naftalin, 1-etil naftalin kabi moddalar mavjudligi aniqlangan. Ularning miqdori, moslik darajasi va zichligi natijalari to'liq tahlil qilingan. Shuningdek "Uz-Kor Gas Chemical" MChJ qo'shma korxonasida ishlab chiqarilgan naftalin asosida superplastifikator sintez qilingan. Superplastifikator PC-400 D-20 markali Portland sement tarkibiga qo'shilganda uning mustaxkamligini oshirishiga olib kelgan.

**Kalit so'zlar:** piroliz, inden, 1-metilinden, naftalin, 1-metil naftalin, 2-metil naftalin, 1-etil naftalin, superplastifikator.

**Аннотация.** В статье изучен химический состав тяжелого пиролизного масла. Отходы пиролиза разделены на фракции и в них обнаружены такие вещества, как инден, 1-метилен, нафталин, 1-метилнафталин, 2-метилнафталин, 1- этилнафталин. Их количество, уровень совместимости и результаты плотности были полностью проанализированы. Также синтезирован суперпластификатор на основе нафталина производства СП ООО «Uz-Kor Gas Chemical». В портландцемент для повышения прочности добавляли суперпластификатор ПЦ-400 Д-20.

**Ключевые слова:** пиролиз, инден, 1-метилен, нафталин, 1-метилнафталин, 2-метилнафталин, 1-этинлафталин, суперпластификатор.

**Abstract.** The article studied the chemical composition of heavy pyrolysis oil. Pyrolysis wastes are divided into fractions and such substances as indene, 1-methylene, naphthalene, 1-methylnaphthalene, 2-methylnaphthalene, 1-ethyl naphthalene are found in them. Their number, level of compatibility and density results were fully analyzed. A superplasticizer based on naphthalene produced by JV Uz-Kor Gas Chemical LLC was also synthesized. Superplasticizer PC-400 D-20 was added to Portland cement to increase strength.

**Key words:** pyrolysis, indene, 1-methylene, naphthalene, 1-methylnaphthalene, 2-methylnaphthalene, 1-ethyl naphthalene, superplasticizer.

Piroliz distillati va piroliz moyi | qimmatbaho kimyoviy mahsulotlar ishlab naftalin, aromatik uglevodorodlar, inden, | chiqarish shuningdek, suyuq piroliz ftal angidrid va sanoatda boshqa | mahsulotlarining og'ir fraksiyalari esa

kelgusida foydalanish uchun ta'sirchan salohiyatga ega ikkilamchi xom-ashyo hisoblanadi [1]. Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar bizga yoqilg'idan ancha qimmat va zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Inden, naftalin va uning gomologlari ishlab chiqarish uchun piroliz chiqindilarini qayta ishlash bo'yicha maqbul texnologiyalar yo'qligi tufayli mamlakatimizda ftal angidrid ishlab chiqarilmaydi [2]. Shuning uchun respublikamizdagi mavjud gaz-kimyo majmualardan chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha kompleks texnologiyani ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb vazifa bo'lib, o'z echimini talab qiladi [3-4].

Piroliz ikkilamchi mahsuloti "piroliz moyi"ni fraksion haydash orqali olingan inden, naftalin va uning gomologlari fraksiyasidan foydalangan holda superplastifikator sintezi, yuqori alyuminiyli sement pastalari bilan gips qorishmalari sinov natijalari olib borish va ularning tuzilishi IQ-spektroskopiya va skanerlovchi elektron mikroskop usullari yordamida o'rganish[5].

O'zbekistonda termik piroliz uchun ustuvor xom ashylar etan, propan-butan fraksiyalari va gaz kondensatlari hisoblanadi. Ishda ikkilamchi gaz kimyo mahsulotlari tarkibidagi suyuq va qattiq piroliz mahsulotlarining og'ir fraksiyalari, piroliz distillatining kimyoviy tarkibi o'rzanildi.

Piroliz distillatining kimyoviy tarkibida asosan uglerod atomlari soniga ko'ra 5 dan 12 gacha bo'lgan turli uglevodorodlar misolida o'rzanildi. Unga ko'ra uglerod atomlari soniga piroliz maxsulotlari tarkibining asosiy miqdorini arenlar tashkil qilib umumiyligi 67.18 % ni, olefinlar 23.7 % ni, dien uglevodorodlar 2.57 % ni, sikloalkanlar 2.08 % ni va alkanlar 1.64 % ni tashkil etishi aniqlandi [6]. Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki og'ir piroliz asosida ajralib chiqqan ikkilamchi mahsulotlar o'tkir hidli, to'q jigarrang yog'simon suyuqlik hisoblanadi, va hosil bo'lgan piroliz xom-ashyolarining tarkibi barqaror emasligi aniqlandi.

Suyuq piroliz mahsulotlaridan ikkilamchi xom ashyo sifatida foydalanish va ularni respublika uchun maqbul qayta

ishlash texnologiyasini ishlab chiqish maqsadida «Uz-Kor Gas Chemical» qo'shma korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan pirokondensatning kimyoviy tarkibini o'rganish ishlari olib borildi. Uglevodorod xom ashysini termik piroliz qilish jarayoni past molekulali to'yinmagan uglevodorodlar – olefinlar (alkenlar) – etilen va propilen ishlab chiqarishning asosiy usuli hisoblanadi. Suyuq piroliz mahsulotlarini ishlatishning asosiy yo'nalishlari, benzol va boshqa aromatik uglevodorodlar, naftalin, neft polimerlari, benzin, yuqori sifatli koks ishlab chiqarish uchun xom ashyo va boshqalar. Neft polimer smolalar (NPS) suyuq va quyuq holatda bo'lib, 200 °C gacha suyuqlanadigan piroliz mahsulotlari engil neft polimerlari smolalari hisoblanadi.


Hozirgi kunda neft-kimyo sanoatida neft qazib olish hajmining qisqarishi tufayli aromatik uglevodorodlar va ularning turli hosilalarini ishlab chiqarish uchun xom ashyo bazasini kengaytirish muammosi keskinlashib bormoqda. Og'ir piroliz mahsulotlari inden va naftalin hamda ularning gomologlari neft-kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun potensial xom ashyo sifatida katta qiziqish uyg'otadi.

Shuningdek ishda og'ir piroliz smolasidan tarkibidan dealkillash va rektifikatsiyalash orqali naftalin va uning gomologlari fraksiyalari ajratib olindi. Naftalin ishlab chiqarish mahalliy xom ashylar asosida amalga oshirilishi og'ir piroliz smolasini qayta ishlashning butun jarayoni samaradorligiga ijobiy ta'sir etadi.

Shu bilan bir qatorda og'ir piroliz mahsulotlaridan samarali foydalanishning asosiy muammosi yuqori sifatli asfaltenlar va mexanik aralashmalar bilan bog'liq bo'lib, piroliz xom ashysi tarkibidagi qatronlardan tozalash talab etiladi. Og'ir piroliz smolasi namunalari, dastlabki sifat va miqdoriy tarkibini aniqlash uchun 30 m×0.25 mm li Agilent 5977-A seriali gaz xromatografida, tayyorlangan namuna tarkibi esa xromato-mass spektroskopiya usulida tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra og'ir piroliz mahsulotlari tarkibida inden, 1-metilinden, Naftalin, 1-metil naftalin, 2-metil

naftalin, 1-etyl naftalin kabi moddalar mavjudligi aniqlanib, ularning miqdori, moslik darajasi va ushlab turilgandan

keyingi natijalari to'liq tahlili 1- rasmda ko'rsatilgan.



### 1-rasm. Og'ir piroлиз smolasining namunalari miqdor va sifat tarkibi

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, og'ir piroлиз moylari asosida ajratib olingan mahsulotlar hidsiz bo'lib tarkibi piroлиз xom ashvosiga bog'liq. Respublikamizdagi sohaga ixtisoslashgan kimyo majmualarida hosil bo'ladigan og'ir piroлиз mahsulotlaridan pirokondensatlar hamda ular tarkibidagi inden hamda naftalin asosida ftal angidrid sintezini amalga oshirish va ishlab chiqarish imkonini beradi.


Shu bilan bir qatorda hozirgi kunda superplastifikatorlarni olish jarayoni ularning fizik-mexanik xossalalarini yaxshilash va kompozitsion materiallarning struktura hosil bo'lislmini tartibga solish uchun sintetik oligomerlar asosida o'zgartirgichlardan foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda qurilish materiallari uchun kimyoviy qo'shimchalar sohasidagi eng muhim muammolardan biri iqlim sharoitlari va aggressiv muhitlarga ta'sir ko'rsatadigan tuzilmalar va inshootlarning mustahkamligi va chidamliligini

oshiradigan yangi organik qo'shimchalarni qidirishdir. Sement tarkibini sifatini yaxshilash uchun yuqori samarali plastifikatsiyalovchi qo'shimchalardan foydalanish muhim. Qurilish sanoatida superplastifikatorlar xom-ashyo aralashmalarining harakatchanligini va tayyor mahsulotlarning xususiyatlarini maqsadga muvofiq o'zgartirishga imkon beruvchi organik kimyoviy qo'shimchalar-konsentrangan suspenziyalarning struktura hosil qilish jarayonlari va reologik xususiyatlarini tartibga solish uchun ishlatalidi.

Shunga asoslangan holda ishda "Uz-Kor Gas Chemical" MChJ qo'shma korxonasida ishlab chiqarilgan naftalin asosidagi superplastifikator sintez qilindi.

Superplastifikatorlar sinovi uchun quruq qurilish materiallari sifatida PC 400 D-20 markali Portland sement, gips va yuqorialyumiyligi sement tanlandi va ushbu mahsulotlarga nisbatan superplastifikatorlarning ta'siri o'rganildi (2-rasm).



2- rasm. Superplastifikator sinov natijalari

Superplastifikatorlar sinov natijalarini o'rganish jarayonida barcha natijalar uchun sement miqdori 100 gr massaga nisbatan olib borildi. Shuningdek superplastifikatorlar bog'lovchi og'irligining 1 % miqdorigacha qo'shildi.

Superplastifikatorlarni 1 % dan ko'p miqdorda qo'shish, ko'p hollarda sementning mustahkamligini pasayishiga olib keldi. Bu esa iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanmaydi. Shu sababli ishda 0,5 % miqdoridan foydalanildi.



3-rasm. SP va yuqori alyuminiyli sement pastalari sinov natijalari

Olingen natijalar (**barcha natijalar uchun sement miqdori 100 gr miqdorga nisbatan olingan**) tahlili shuni ko'rsatadiki, doimiy suv-sement nisbatda sintezlangan superplastifikator


mehsulotning mustahkamligi ortadi va sement zarrachalarining o'ttacha zichligi superplastifikator miqdori ortishi bilan sement qorishmasining mustaxkamligi,

ishlash davomiyligi yaxshilanishini ko'rsatadi.

Shu bilan birgalikda superplastifikator qo'shilgan yuqorialyumiyyili sement tarkibining tarqalishi 14 sm ekanligini ko'rshimiz mumkin. Ushbu natijalar an'anaviy sement kompozitsiyalari bilan solishtirilganda plastiklik xususiyatiga ta'sir etish darajasi o'rtacha oshishiga olib kelishi mumkin. Bu odadta adabiyotlardagi ma'lumotlarga

asosan trikalsiy alyuminiiyning yuqori miqdori bilan izohlanadi.

Piroliz mahsulotlari tarkibidagi pirokondensatlar va ular asosida superplastifikatorlarni olish jarayonini o'rganish, olingan super plassifikatorlarni sement qorishmalarini o'rganishdan tashqari, gips qorishmalaridagi miqdori, gips massasiga nisbatan qo'shimchalar miqdori va ularning ta'siri, tarqalishi ham sinov muddatidan keyingi zichliklari ham o'rganildi (4 rasm).



**4-rasm. Superplastifikator bilan gips qorishmalari sinov natijalari**

Natijalar tahlili (*barcha natijalar uchun gips miqdori 100 gr miqdorga nisbatan olingan*) shuni ko'rsatdiki, superplastifikatorning o'ziga xos xususiyati shundaki, superplastifikator ishtirokida sement qorishmasining normal qotishi yupqa kristall strukturasining hosil bo'lishi sodir bo'ladi. Shuningdek, bog'lovchi plasifikator namunalarining rentgenologik tahliliga ko'ra, superplastifikatorlar sement sirt yuzasidagi gidrat fazalari tarkibiga ta'sir etmaydi. Shu bilan birgalikda superplastifikator ham o'rtacha plastifikatsiylovchi ta'sirga ega bo'lib, superplastifikator miqdori ortishi bilan gipsning mustahkamlik darajasi dastlab 11.6 MPa dan 16.1 MPa ga ko'tarilgan bo'lsa, Gips massasiga nisbatan qo'shimchalar miqdori 0.2 % dan 1 % ga

oshirilganda esa zichlikning 15 MPa dan 11 MPa ga kamayib borishini ko'rshimiz mumkin.

Piroliz distillati asosan 6-12 uglerod soniga ega bo'lgan arenlar va olefinlarni o'z ichiga oladi. Olefinlar tarkibida 23,7%, arenlar 67,18% ni tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda piroliz distilatlari tarkibidan alkanlar, dienlar va sikloalkanlar ham ma'lum miqdorlarda ajratib olish mumkin.

Og'ir piroliz neft mahsulotlari asosan 41.51%, 2-metilnaftalin 16.25%, shuningdek, indene 9.33%, 1-metilnaftalin, 1,6-dimetilnaftalin va naftalinni o'z ichiga oladi. Miqdoriy va sifat tahlili shuni ko'rsatdiki, smola komponentlarining spektrogrammalari Nicolet 6700 IQ spektrometrining kontinium mikroskopi va

Raman moduli yordamida o'rganildi va 90-97% ma'lumotlar bazasiga mos kelishi aniqlandi.

Ftal angidrid ishlab chiqarish uchun promotor sifatida kaliy sulfat va katalizator sifatida vanadiy (V) oksidi, naftalinning bug' fazali oksidlanishi reaksiyalarida

ishlatiladigan bentonit kleylar asosidagi to't turdag'i katalizatorlarning fizik-kimyoiy xossalari o'rganildi. Olingan moddalar, ularning tuzilishi va fizik-kimyoiy xossalari turli spektroskopiya usullari yordamida isbotlandi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Зиядуллаева К.Х., Нурманов С.Э., Мухиддинов Б.Ф., Кодиров О.Ш., Валоев Х.М. Катализатор окисления вк-10-2 для производства фталевого ангидрида из нафталина., Наональная ассоциация ученых (НАУ) # 61, 2020., С-46-49.
2. Зиядуллаева К.Х., Нурманов С.Э., Курбанова А.Дж. Ахмедова Н., Технологические основы приготовления и изучение свойств катализаторов при получении фталевого ангидрида на основе нафталина., Universum: технические науки: научный журнал. – № 8(89). Часть 2. М., Изд. «МЦНО», 2021. С-37-43.
3. Зиядуллаева К.Х., Нурманов С.Э., Курбанова А.Дж. Ахмедова Н., Технологические основы приготовления и изучение свойств катализаторов при получении фталевого ангидрида на основе нафталина., Universum: технические науки: научный журнал. – № 8(89). Часть 2. М., Изд. «МЦНО», 2021. С-37-43.
5. Кодиров О.Ш., Зиядуллаева К.Х. Элементный анализ синтезированных катализаторов на основе оксида ванадия и бентонита. Бухара, 2020. – С. 457–459.
6. Ziyadullaeva K.X., Nurmanov S.E., Abdullaev L. B., Kodirov O. Sh., Abdullaev M. Ch., Physicochemical properties of vapor phase oxidation heat catalysts based on bentonite clays, Austrian Journal of Technical and Natural Sciences № 11–12 2021 November – December., <https://doi.org/10.29013/AJT-21-11.12-31-38>

## **SYNTHESIS OF A SUPER BIOSTIMULATOR OF BIS-4-BROMPHENOXYCARBAMATE DERIVATIVES, TECHNOLOGY OF PROPERTIES AND THEIR APPLICATION**

## **СИНТЕЗ СУПЕРБИОСТИМУЛЯТОРА ПРОИЗВОДНЫХ БИС-4-БРОМФЕНОКСИКАРБАМАТОВ, ТЕХНОЛОГИЯ СВОЙСТВ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ**

## **SUPERBIOSTIMULYATOR BIS-4-BROMOFENOKSIKARBAMAT HOSILALARI SINTEZI, TEXNOLOGIYASI XOSSALARI VA ULARNING QO'LLANISHI**

**B.N.Xoliqulov,A.G'.Maxsumov, A.Umrzoqov  
D.A.Xandamov,G'.M.Ochilov**

**ABSTRACT** In the study, the synthesis of new derivatives of N,N'-hexamethylene-bis[(4-bromophenoxy-carbamates] by the interaction of ortho-bromophenol with hexamethylene diisocyanate based on selective, energy-saving, waste-free technologies was carried out: The reaction was carried out in a medium of dimethylformamide and triethylamine at room temperature in within 4 hours. Scientific studies were carried out to determine the reaction mechanisms, properties and reactivity of compounds containing NH groups in bis-carbamates. The structure of the obtained compounds was proved by various spectroscopic methods.

**Key words.** 4-bromo-substituted bis-carbamates, N,N'-hexamethylenebis[(4-bromophenoxy)-carbamate], N,N'-dichloride, N,N'-dinitroso, N,N'-disodium, N,N'-dibenzyl, isopropyl iodide.

**Аннотация:** В исследовании проведен синтез новых производных N,N'-гексаметилен-бис[2-бромфенокси-карбаматов] взаимодействием орто-